

TEMURIYLAR DAVRIDAGI YOGONA RITSAR IOGANN SHILTBERGER VA UNING SARGUZASHTLARI

Galayev Og'abek Berdirahmat o'g'li

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada salb yurishlari davrida ko'plab o'ljalar va boylik istab yulga chiqqan nemis ritsari Iogann Shiltbergerning 31 yil davomida, ya'ni butun umrining yarimini qul sifatida dastlab Boyozid so'ngra Amir Temur va Temuriylar xuzurida xizmatida bo'lishi va uning shu sarguzashtlari davomida yozgan asarlari haqida ma'luotlar keltiramiz.

Kalit so'zlar. Iogann Shiltberger, Ritsar, Nikopolis, Sigismund, Amir Temur, Estaliklar, Boyazid, Sayyohat, Volga daryosi, Usmoniylar, Nasroniylar, Qul, Bavariya, Oltin O'rda.

Iogann yoki Gans Shiltberger – nemis ritsari, sayyohi va yozuvchisi. Shiltberger kambag'allashgan ritsarlar sulolasidan bo'lgan. Uning oilasi haqida ma'lumot ko'p emas, faqat ular Bavariya burgerlari, marshallar va gersoglariga yaqin bo'lgan zodogan oilasidan ekani bizga ma'lum. Taxminlarga ko'ra Iogann Shiltberger 1381-yilda Myunxen va Freising o'rtasidagi Lohhof yaqindagi Hollemda tavallud topgan. Taxminlarga ko'ra Iogann Shiltberger 1440 – yilda vofot etgan. Iogann Shiltberger yoshligida uyidan erta tark etadi. 1394-yilda 14 yoshli Iogann Shiltberger ritsar Leonard Richartingerning qurolbordori bo'lib xizmat qiladi.

O'sha paytlarda Vengeriya qiroligi Usmoniylar imperiyasi tomonidan bosib olinishi xafi ostida edi. Shuning uchun Vengeriya qiroli Sigismund musulmon turklardan himoyalaniish uchun imkon qadar ko'proq nasroniy jangchilarni Usmoniylarga qarshi janga undardi. Iogann Shiltberger Bavariyadan ketganidan ikki yil o'tgach, butun umriga ta'sir qiladigan janga kirishdi. U ritsar Leonard Richartinger bilan birga Lyuksemburglik Sigismundning turklarga qarshi salb yurishlarida qatnashgan. Sigismund 1394-yilda Dunay daryosi bo'yidagi Nikopolis shahriga yurish qilib, turklar bilan aloqani bo'zadi va dastlabki janglarda muvaffaqiyat qozongan bo'lsada ular Nikopol jangida mag'lub bo'lib chekinishga majbur bo'ladi. Despot nomi bilan mashhur bo'lgan turk gersogi Irise Nikopolda tartibsiz qochib borayotgan nasroniy jangchilarni bosib oladi. Sigismund qo'l ostida jang qilgan ko'plab askarlar yo o'ldirilgan yoki chuktirib yuborilgan.

Yevropa salbchilarning ulkan muvaffaqiyatsizlikga o'chiragan Nikopolis jangida Iogann Shiltberger 1396 - yil 28 sentyabrda Usmoniylar imperiyasi

tomonidan asir olinadi. Asir olinganlarining ko'pchligi jang maydonida boshi kesilardi, lekin Shiltberger yosh bo'lgani uchun Sultonning o'g'li uni tirik qoldirishni buyurdi va Shiltberger Usmoniylar tarafidan qulga aylandirildi. U Boyazid I va uning o'g'ilarining mulozimi bo'lib xizmat qildi (1396-1402). U Usmoniylar qo'shini bilan birga Kichik Osiyoning ko'pgina qisimlariga, hamda Misrga ham hamroq bo'lib boradi va ko'pgina joylarda sayohat qiladi. 1402 - yil 20 - iyulda Anqara yaqinida Boyazid I Yildirim Amir Temur tomonidan mog'lubiyatga o'chragach, Iogann Shiltberger Sohibqironning asiriga aylangan va unga ergashib Samarqand, Armaniston va Gruziyagacha bo'lgan hududlarda xizmat qiladi.

Amir Temurning 1405 -yil 17 - fevralda Xitoyga harbiy yurish paytida tusatdan vofot etadi. Iogann Shiltberger esa Amir Temurning o'g'li, Hirot hokimi Shoxruh Mirzoga xizmat qilgan. Ko'p o'tmay Shoxruh uni Fors ko'rfazi va Armanistonda sohib chiqan qardoshi Mironshohga qul sifatida taqdim etgan. Lekin 1408 - yilda Turkmanlar hukmdori Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh holok bo'ladi. Mironshohning o'g'li Abu Bakr Oltin O'rda taxtiga davogar Chingiziy Chekreni Tabrizdagi saroyida yashirib yurganida Xon Edigey Chekrega poytaxt sorayiga qaytishni taklif qiladi. Natijada shohzoda o'zi bilan birgalikda 5 nafar nasroniy asirni, shu jumladan iqtidorli olimon Shiltbergerni olib ketadi. Oxir oqibatda Shiltberger Xon Yedigeyga sovg'a qilindi va qahramonimiz u bilan birgalikda yurishga ya'ni Sibirga otlandi. Shiltberger bu yerlarda Qozon, Rassiyaning janubiy - sharqidagi dashtlarni, quyi Volga bo'yidagi Qipchoq xonliklarining poytaxti Saroy-Botuni, Venetsiya va Genuyalik sovdogarlarning sovd o markazi bo'lgan Azov va Tongaga tashrif buyuradi. Qirim, Abxaziya va Mengreliya hududlarida xizmatda bo'ladi.

Shiltberger Mengreliyadagi qullikdan qochib, 4 ta hamrohi bilan birga Trobizondagi Frank kemasida o'tirib, Konstantinopol, Bolgariya, Moldaviya, Lemberg, Krakov, Breslau va Meissen orqali 1427 - yilda Bavariyadagi uyiga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Qaytib kelgach, u "kofir xalqdan va ularning yovuz dinidan" qochib ketgani uchun Xudoga minnatdorchilik bildirdi va Albrect III qo'riqchisi, 1438 - yilda esa qo'riqchi qo'mondoni sifatida sharaflandi. Ozodlikka chiqqanidan ko'p o'tmay Shiltberger o'z sarguzashtlarini Bavariyaning o'rta oliy nemis tilida yozishga kirishadi. Mazkur xotiralar uning uzoq sayyohatlarini, u kurishga muvaffaq bo'lgan o'lkalar, tarixiy shaxslar, jumladan Boyazid I Yildirim, Amir Temur hamda boshqalarning tarifini o'zida mujassam etdi. Ammo nufuzli tarixchilar Shiltbergerning 31 yil davomida yozib qoldirgan xotiralariga skifdik qarashadi va uning „sayyohat“ kitobidagi ba'zi tafsilotlarni shufqa ostiga olishadi,

shunga qaramay logann Shiltbergerning „ Sayyohat” kitobi o’sha davr haqida qimmatli ma’lumotlarni to’plagan tarixiy manba hisoblanadi.

Bu kitobdan bir - ikkita misol keltiramiz: 1) Temuriylar, xususan ularning Ozarbayjondagi noiblari, masalan Abubakr Mirzo Oltin O’rda hukmdorlarining o’zaro kurashlariga aralashib turganlar. 2) XV asrning boshida Oltin O’rdaning ichki ahvoli va bunda qudratli amir Yedigey (Idiku O’zbek)ning nomi ko’rsatib o’tiladi. 3) Ozarbayjon, Dashti qipchoq va uning xalqi haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Masalan, Ozarbayjon haqida bunday ma’lumotlar bor; Tabriz Eronning bosh shaharlaridan. Uning savdodan oladigan foydasi tamom bir xristian davlati topadigan foydadan ortiq. «Sultoniya, Ray, Marog’a, Axlaf, Gilon ham ushbu mamlakatning yirik shaharlaridan... Rayning xalqi boshqalardan shu bilan farq qiladiki, u Muhammadga emas, balki Aliga imon keltiradi. Ularni rofiziylar deb ataydilar».

Dashti qipchoq va uning xalqi haqida logann Shiltbergerning «Esdaliklari» da mana bunday gaplar bor; «Men, shuningdek, Buyuk Tataristonda ham bo’ldim. Xalqi don ekinlaridan faqat tariq ekadi. Ular umuman non va vino istimol qilmaydilar. Vino o’rniga ot va tuyaning sutini ichadilar, shu va boshqa hayvonlarning go’shtini yedilar ...Yana shuni ham aytish kerakki, xon saylashda uni oq kigizga o’tqizib, uch marta ko’tarib yerga qo’yadilar, so’ng chodir atrofida aylantirib, keyin ichkariga olib kiradilar va taxtga o’tqazadilar.» Tahminan 1420-yilda Qorabog’ga birinchi marta tashrif buyurgan Shiltberger bunday yozdi: " Tamerlan vafotidan so’ng men uning o’g’li bilan tanishdim. Shu Mirzo Shohrux ismli o’g’li, Armanistonda 2 ta qirollikning egasi bo’lib, u qishni kunlarini katta Qorabog’ deb ataluvchi ravonlikda o’tkazish an’anaga ega edi.

Bu ravonlik yonida Kur yoki Tigr daryosi oqib o’tardi. Uning qirg’og’ilarida eng yaxshi ipak yetishtirilardi. Shu ravonlik Armanistonda joylashganligiga qaramay, u musulmonlarga qarashli edi. Qishloqlarda armanlar ham yashaydilar, ammo ular musulmonlarga soliq to’lashga majbur edi. Armanlarning menga nisbatan bo’lgan munosabati yaxshi edi, chunki men nemis edim, ular nemislarni hurmat qilishardi. Ular menga o’zlarining tilini o’rgatardilar va o’zlarini "Pater noster "ni berishdi." Umuman, bu kitob Sharqiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron, Movarounnahr, Dashti qipchoq, Iroq, Suriya va Misr mamlakatlari tarixi va xalqi haqida ayrim, diqqatga sazovor ma’lumotlar beradi.

logann Shiltbergerning mazkur asari «logann Shiltbergerning Yevropa, Osiyo va Afrika bo’ylab qilgan sayohati (1394-1427 yy.)» deb ataladi va uning rus tilida (nemischa nashri 1859 yili amalga oshirilgan) uchta yaxshi

nashri bor. Birinchisi Odessa Universitetining profkssori F.K.Braun tarafidan 1867 yili, ikkinchisi Ozarbayjon Fanlar Akademiyasi akademigi Z.M.Bunyodov 1984 yili va uchinchisi 1997 yilida

Toshkentda amalga oshirilgan. Iogann Shiltberger haqida Yevropa yozuvchilari: Konstantin Mixaylovich (1430 yilda tug'ilgan), Vengriyalik Jorj (taxminan 1422–1502), Emili Ruete (1844-1924), Beazley, Charlz Raymond (1911) Usmonli imperiyasining qochqin quli haqida hikoyalar yozgan.



ADABIYOTLAR:

1. Tarix kafedراسi-manbashunoslik va tarixshunoslik, 118 bet. Urganch-2012
2. Encyclopaedia Britannica. Vol. 24 (11th ed)
3. Cambridge University Press. P. 326
4. The Bondage and Travels of Johann Schiltberger, Translated by J. Buchan Telfer. Ayer Publishing, 1996, p. 86.

5. Путешествие Ивана Шильтбергера по Европе, Азии и Африке». Перевод и примечания Ф.Бруна, Одесса, 1866, с.110
6. Johannes Schiltberger, Als Sklave im Osmanischen Reich und bei den Tataren: 1394-1427 (Stuttgart: Thienemann Press, 1983), p. 209 Johann Schiltberger.
7. Asilbek, Khojayorov. "History of Sufism in Nasaf Oasis." Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599) 1.6 (2023): 15-19.
8. Ходжаёров, Асилбек Отабек угли. "СОМОНИЙЛАР ДАВРИДА НАСАФ ШАҲРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҲАЁТИ." ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ 6.1 (2023).
9. Хўжаёров, Асилбек Отабек ўғли. "ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АЛЛОМАЛАРИ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 21. 2022.
10. Khojayorov, Asilbek. "THE SCIENTIFIC–LITERARY ENVIRONMENT OF THE NASAF OASIS IN THE MIDDLE AGES." Educational Research in Universal Sciences 2.3 (2023): 885-888.
11. Хўжаёров, Асилбек. "ЎРТА АСРЛАРДА НАСАФ ВОҲАСИ ИЛМИЙ–АДАБИЙ ҲАЁТИ." Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования 2.7 (2023): 41-43.
12. Бўриев, Очил, Шерзод Искандаров, and Асилбек Хўжаёров. "Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари ноёб этнографик манба сифатида." Academic research in educational sciences 3 (2022): 399-411.